

O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR

Madina, mana bu topishmoqni top-chi!
*Bolalarga o'qish-yozishni, tabiatni sevishni,
kattalarni hurmat qilishni kim o'rgatadi?*



Akmal, axir bu ustoz-ku. Sen
ustozlarning **kasb bayrami**
borligini bilasanmi?

Albatta, bilaman. Axir har yili
1-oktabr kuni onajonimni o'quvchilari
tabriklashadi.



Ha. Bu bayram – **O'qituvchi va
murabbiylar kuni.**





Iskandar va Arastu

*Munavvarqori Abdurashidxonov**

Qadim zamonda **Iskandar Rumi**y degan bir **podshoh** bor edi. Uning **Arastu** ismli bir **olim** va dono ustozi bo'lgan edi. Iskandar ustozini o'ziga bosh vazir qilib, barcha mamlakat ishlarini unga topshiribdi. Podshoh har bir ishni u bilan maslahatlashgan holda qilar edi. Eshikdan kelsa, o'rnidan turib, joy berar edi. U ustozini o'zining otasidan ortiq izzat va hurmat qilardi. Bir kuni vazirlardan biri Iskandardan so'radi:

– Nima uchun Arastuni otangizdan ham ortiq izzat qilasiz?

Iskandar aytdi:

– Otam go'yoki meni osmondan yerga tushirdi, ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko'tardi. Buning ma'nosi shuki, otam mening dunyoga kelishimga, ustozim esa ilm va odob o'rgatib, martaba va izzatimning ortishiga sababchi bo'ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortiq hurmat qilaman.



**Munavvarqori Abdurashidxonov – atoqli o'zbek ma'rifatparvari, yozuvchi va pedagog.*



1. Nima deb o'ylaysiz, Iskandar nima uchun Arastuni bosh vazir qilib, davlatning muhim ishlarini unga ishonib topshirdi?
2. Iskandar nima sababdan ustozini qattiq hurmat qilar va undan minnatdor edi?



Qismlardan maqollar tuzing va ularning ma'nosini tushuntiring.

Ustoz bilimli bo'lsa,

**o'quvchilarining
hurmatini qozonadi.**

Yaxshi muallim

**shogird ilmi
bo'ladi.**



Ibratli ustoz



Abdulla Avloniy XX asr boshidagi mashhur o'zbek yozuvchisi va pedagogi bo'lib, jadidlardan* biri edi. U Toshkentda yangi maktablar tashkil qildi. U bu maktablarda darslarning o'zbek tilida olib borilishini hamda geografiya, kimyo, fizika kabi fanlarning o'qitilishini yo'lga qo'ydi. Shuningdek, u darslar orasida tanaffusni, sinfdan sinfga o'tish imtihonlarini ham joriy qildi.

Abdulla Avloniy bolalar uchun ko'plab darslik va kitoblar yozdi. Maktablarda imkon qadar ko'proq bolalar ta'lim olishlari uchun xayriya mablag'lari yig'ishni tashkil qildi.



- 1. Abdulla Avloniy** qanday yangi o'quv fanlarini kiritgan? U maktablarda yana qanday yangiliklar joriy qilgan?
- 2. Abdulla Avloniy** imkon qadar ko'proq bolalar ta'lim olishi uchun nimalar qilgan?

****Jadidlar** – ommaviy ta'lim, fan va dunyoviy ilmlarni rivojlantirish, tillarni o'rganish hamda jamiyatda tenglikni ta'minlashga katta e'tibor bergan kishilar.*



Bilim olish uchun o'quvchiga yordam beradigan fazilatlarni tanlang.

diqqat-e'tiborlilik

sabr-toqatlilik

mehnatsevarlik

kirishimlilik

tortinchoqlik

dangasalik

rostgo'ylik

jizzakilik

mustaqillik

qo'rqoqlik

qiziquvchanlik



Yaxshilab o'ylab, gaplarni to'ldiring.

Men ...ni o'rganishni xohlayman.
O'qishda muvaffaqiyatga erishish uchun ...
kerak.



Sinfdoshlaringiz bilan birga **O'qituvchi va murabbiylar kuniga** bag'ishlab, tabriknoma tayyorlang.

